

GIYOHLAR VA ULARDAN FOYDALANISH USULLARI

Umirqulova F. A., Xolboboyeva M. M.

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Termiz sh. Farovon massivi, 4B-uy

e-mail: nurmexa67@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada giyohlar va dorivor giyohlarning inson hayoti uchun qanchalik kerakligini ko'rib o'tishimiz mumkin. Hozirgi kunda giyohlarning turlari judayam ko'p. Ulardan tabobatda qanday qilib foydalanish haqida ham tanishib chiqamiz. Giyohlar haqida bir qancha olimlarning fikrlarini va ilmiy ishlarini ham ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: giyohlar,giyohlarni turlari, xususiyatlari, foydali taraflari, ko'payishi, tarqalishi, foydalanish usullari.

АННОТАЦИЯ

В этой статье мы можем увидеть, сколько каннабиса и медицинского каннабиса необходимо для жизни человека. В настоящее время существует множество видов марихуаны. Также мы научимся использовать их в медицине. Также мы рассмотрим мнения и научные работы ряда ученых о травах.

Ключевые слова: травы, виды трав, свойства, полезные стороны, размножение, распространение, способы использования.

ABSTRACT

In this article we can see how much cannabis and medicinal cannabis are needed for human life. Nowadays, there are many types of marijuana. We will also learn how to use them in medicine. We will also consider the opinions and scientific works of several scientists about herbs.

Key words: herbs, types of herbs, properties, useful aspects, propagation, distribution, methods of use.

Kirish. Dorivor o'simliklar — odam va hayvonlarni davolash, kasalliklarning oldini olish uchun, shuningdek, oziq-ovqat, atir-upa va kosmetika sanoatida ishlatiladigan o'simliklar — giyohlar. Yer yuzida dorivor o'simliklarning 10—12 ming turi borligi aniqlangan. 1000 dan ortiq o'simlik turining kimyoviy, farmakologik va is xossalari tekshirilgan. O'zbekistonda dorivor o'simliklarning

700 dan ortiq turi mavjud. Shulardan tabiiy sharoitda o'sadigan va madaniylashtirilgan 120 ga yaqin o'simlik turlaridan ilmiy va xalq tabobatida foydalaniladi. Hozirgi davrda tibbiyotda qo'llaniladigan dori-darmonlarning qaryib 40—47% o'simlik xom ashyolaridan olinadi. O'simliklar murakkab tuzilishiga ega bo'lgan jonli tabiiy kimyoviy laboratoriya bo'lib, oddiy noorganik moddalardan murakkab organik moddalar yoki birikmalarni yaratish qobiliyatiga ega. Dorivor o'simliklarning quritilgan o'ti, kurtagi, ildizi, ildizpoyasi, tunganagi, piyozi, po'stlog'i, bargi, guli, g'unchasi, mevasi (ur'ugi), danagi, sharbati, qiyomi, toshchoyi, efir moyi va boshqalardan doridarmon tarzida foydalaniladi [1].

1-jadval

O'zbekistondagi dorivor o'simliklar [2]

T/r	O'simliklar nomi	Oilasi	Lotincha nomi
1	Arslonquyuq	labguldoshlar	

O`zbekistondagi dorivor o`simliklar.
(Haydarov.Q va Hojimatov.Q
kitoblari asosida.)



O`simlik nomi.	Oilasi.
1.arslonquyruq(arslonquloq)	labguldoshlar
2.arpabodyon	soyqabonguldoshlar
3.bo`tako`z	murakkabguldoshlar
4.bo`ymadaron	murakkabguldoshlar
5.bazulbong	labguldoshlar
6.beshbarg	ra`noguldoshlar
7.baxmalgul	gulxayridoshlar
8.dalachoy	dalachoydoshlar
9.gulizdarak	ayiqtovondoshlar
10.gazanda	gazandadoshlar
11.ixroj	sutlamadoshlar
12.itburun(na`matak)	ra`noguldoshlar
13.isiriq	tuyatovondoshlar
14.kashnich	soyabonguldoshlar
15.limono`t	labguldoshlar
16.mamarak(mavrak)	labguldoshlar
17.omonqora(qoraqobiq)	chuchmomodoshlar
18.oqqaldirmoq	murakkabguldoshlar
19.olabuta	sho`radoshlar
20.oqsinak	dukkakdoshlar
21.petrushka	soyabonguldoshlar
22.qush jiyda	jiydadoshlar
23.qirqbo`g`im	qirqbo`g`imdoshlar
24.qizilmiya(shirinmiya)	ra`noguldoshlar
25.qoraandiz	murakkabguldoshlar
26.qoqio`t	murakkabguldoshlar
27.qoshqarbeda	dukkakdoshlar
28.qorazirk	zirkdoshlar
29.qizilbarg	onachirdoshlar
30.qariqiz	murakkabguldoshlar
31.qo`ytikan	murakkabguldoshlar
32.rovoch	ayiqtovondoshlar

Dorivor o'simliklarni 2 xil tasniflash qabul qilingan: 1) ta'sir qiluvchi moddalarning tarkibiga qarab — alkaloidli, glikozidli, efir moyli, vitaminli va boshqalar, 2) farmakologik ko'rsatkichlariga qarab — tinchlantiruvchi, og'riqqoldiruvchi, uxlatuvchi, yurak-tomir tizimiga ta'sir qiluvchi, marka-ziy nerv sistemasini qo'zg'atuvchi, qon bosimini pasaytiruvchi va boshqalar. Dorivor o'simliklarning ta'sir etuvchi moddalari alkaloidlar, turli glikozidlar (antraglikozidlar, yurakka ta'sir etuvchi glikozidlar, saponinlar va boshqalar), flavonoidlar, kumarinlar, oshlovchi va shilliq moddalar, efir moylari, vitaminlar,



bo'yoq moddalar, fermentlar, fitonsidlar, kraxmal, oqsillar, polisaharidlar, azotli moddalar, moy hamda moy kislotalari va boshqa birikmalar bo'lishi mumkin.

Dorivor o'simliklarning organizmga ta'siri uning tarkibidagi kimyoviy birikmalarning miqdoriga bog'liq. Bu birikmalar o'simlikning qismlarida turli miqdorda to'planadi. Dorining ta'sirchanlik quvvati hamda sifati yuqori bo'lish davri ularning gullash hamda urug'lash davrining boshlanishi vaqtiga to'g'ri keladi. Dorivor moddalar ba'zi o'simliklarning kurtagi, bargi yoki poyasida, ba'zi o'simliklarning guli yoki mevasida, ba'zilarida ildizi yoki po'stlog'ida to'planadi. Shuning uchun o'simliklarning asosan biologik aktiv moddalari ko'p bo'lgan qismi yig'ib olinadi. O'simliklarning ildizi, ildizpoyasi, piyozi va tunganagi, odatda, o'simlik uyquga kirgan davrda — kech kuzda yoki o'simlik uyg'onmasdan oldin — erta bahorda tayyorlanadi. O'simlikning meva va urug'lari pishib yetilganda yig'iladi, chunki ular bu paytda dori moddalariga boy bo'ladi. Yangi yig'ib olingan dorivor o'simlik mahsuloti tarkibida (yer ustki a'zolarida 85% gacha, ildizida 45% gacha) nam bo'ladi. Bu nam yo'qotilmasa (quritish yo'li bilan), o'simlik chirib, dori moddalari parchalanib, yaroqsiz bo'lib qoladi.

Odamlar qadim zamonlardan tabiat ne'matlaridan foydalana boshlaganidan buyan dorivor o'tlardan kasalliklarni davolashda foydalanib kelganlar. Bundan 3—4 ming yil ilgari Hindiston, Xitoy, Qad. Misr mamlakatlarida shifobaxsh o'simliklar haqida ma'lumotlar beruvchi asarlar yozilgan. Sharqda, xususan O'rta Osiyo xalq tabobatida dorivor o'simliklardan foydalanib davolash o'zining qad. an'alariga ega. Shifobaxsh o'simliklardan tibbiy maqsadlarda foydalanish borasida Abu Ali Ibn Sinoning "Al-qonun" asarida 476 ga yaqin o'simlikning shifobaxsh xususiyatlari va ularni ishlatish usullari to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi. Hoz. vaqtda dorivor o'simliklarning turi ko'payib, xalq tabobati shifobaxsh o'simliklar bilan boyigan. Dorivor o'simliklardan ko'proq, anor, achchiqmiya, bodom, do'g'buy, dorivor



gulxayri, yong'oq, jag'-jag', zubtutum, isiriq, itburun, omonqora, pista daraxti, sachratqi, choyo't, shildirbosh, shirinmiya, shuvoq, yantoq, yalpiz, kiyiko't, tog'rayhon, qizilcha, qoqio't va boshqalari tarqalgan. Achchiqmiyadan paxikarpin, oqquraydan pesni davolashda qo'llaniladigan psoralen, isiriqdan garmin, itsigekdan anabazin, omonqoradan galantamin, shildirboshdan sferofizin va b. alkaloidlar olinadi. Anor pustidan gijja haydovchi pelterin tanat va ekstrakt tayyorlanadi. Dorivor gulxayri preparatlari balg'am ko'chiruvchi va yumshatuvchi, jag'-jag' va lagoxilusdan tayyorlangan dorilari qon ketishini to'xtatuvchi, pista bujg'uni va choyo'tdan tayyorlangan dorilar me'daichak kasalliklarini davolashda ishlatiladi. S.Q. Islombekov nomidagi Toshkent farmatsevtika zdida O'zbekistonda o'sadigan va ekiladigan dorivor o'simliklardan turlituman dorilar tayyorlanadi. Dorivor o'simliklarni topish va ulardan alkaloidlar olishda O'zbekistan FA O'simlik moddalari kimyosi institutining xizmati katta. Intda 4000 dan ortiq o'simlikning turli

organlari alkaloid olish maqsadida o'rganilib, ulardan 1000 ga yaqin tabiiy birikmalar ajratib olingan. Shu asosda sitizin, galantamin kabi 20 dan ortiq qimmatli preparat yaratilgan va tibbiyotga joriy qilingan. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Botanika instituti va Botanika bog'ining efir moyli, dorivor va bo'yoqli o'simliklar lab. ilmiy xodimlari mutaxassislar bilan hamkorlikda O'rta Osiyo hududida ko'p tarqalgan yuqumli kasalliklardan eng xavfli sariq (gepatit)ni davolashda ekologik jihatidan toza, samaradorligi yuqori bo'lgan dorivor o'simliklar xom ashyolaridan tayyorlangan "Safro haydovchi Hojimatov yig'masi"ni yaratdilar va bu yig'ma ilmiy tibbiyotda qo'llashga va ishlab chiqarishga ruxsat etildi (1997). Shuningdek, SamDU Botanika kafedrasida, Toshkent davlat farmatsevtika institutida dorivor o'simliklarni ekib yetishtirish texnologiyasi o'rganilmoqda. Toshkent, Namangan, Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida va Xorazm Ma'mun akademiyasida dorivor o'simliklar yetishtiradigan maxsus xo'jaliklar bor. Yovvoyi dorivor o'simliklar xom ashyolari asosan "O'zfarm sanoat" respublika davlat-aksiyadorlik konserni, matlubot shirkatlari va O'zbekiston Qishloq va suv xo'jalik vazirligining "Shifobaxsh" ishlab chiqarish birlashmasi xo'jaliklari tomonidan tayyorlanadi.



Tog'lar — tabiiy holda o'sadigan daraxtlarga boyligi bilan boshqa mintaqalardan farq qiladi. O'zbekiston tog'larini archalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ular tog'larimizning ko'rki bo'libgina qolmay, tog' yon bag'irlarini eroziyadan saqlashda ishonchli omildir. Archalar juda uzoq — 300-700, hatto 1000-yillar mobaynida o'sib rivojlanadi. Keng bargli daraxtlardan zarang, olma, nok, olcha, do'lana, qatrong'i, pista, bodom, yong'oq, oq qayin, tol, terak, shumtol va hastakar ko'p tarqalgan. Ular ko'pincha mustaqil guruhlarni tashkil qiladi. Tog'lardagi mevali daraxtlar mevasidan odamlar va hayvonlar oziq-ovqat sifatida foydalanadi.

U yerlarda daraxtlar bilan bir qatorda turli oila va turkumlarga mansub butalar ko'p. Ular alohida-alohida guruhlari hosil qilib yoki daraxtlar bilan aralashgan qolda

o'sadi. Uchqat, na'matak, zirk, irg'ay, tobulg'a, chiya, qizilcha kabi butalar keng tarqalgan. Tog' sharoitida o'sishga moslanish darajasiga monand ravishda ko'p yillik o'tlardan yovvoyi beda, marmarak, shashir, rovoch, kiyiko't, choyo't, zira, qiziltikan, lola, shirach, turli boshqoli, dukkakli va piyozli o'simliklarga damba-dam duch kelish mumkin. Bu o'simliklar orasida dorivor, efir moyli, oziq-ovqat, yem-xashak va boshqa maqsadlarda foydalaniladiganlari talaygina. Shuningdek, muhofazaga muhtojlari O'zbekiston Respublikasining "Qizil kitobi"ga kiritilgan.

O'simliklar — tirik organizmlar dunyosi; fotosintez qilish xususiyatiga ega bo'lgan avtotrof organizmlar (qarang Avtotroflar); hujayra po'sti, odatda, qalin selliyulozadan, zaxira oziq moddasi kraxmaldan iborat. Ayrim o'simlik(saprofitlar, parazitlar) uchun xos bo'lgan geterotrof oziqlanish ikkilamchi hisoblanadi. O'simlik(O'simliklar)ga xos boshqa xususiyatlar (o'ziga xos rivojlanish sikli, organlarning shakllanish yo'li, yopishib yashash va boshqalar) hamma o'simlikga tegishli emas, lekin bu belgilarning majmui o'simlikni boshqa tirik organizmlardan oson farq qilishga imkon beradi. Faqat tuzilishning quyi, ayniqsa, bir hujayralilar darajasida o'simlik bilan boshqa organizmlar o'rtasidagi farq uncha aniq sezilmaydi; shuning uchun evglenasimon suvo'tlarni zoologlar bir hujayrali hayvonlarga kiritishadi. Bir hujayrali o'simlikning boshqa bir hujayrali organizmlardan asosiy farqi — xloroplastlar bo'lishi. Tuzilish darajasi orta borgan sari o'simlik bilan boshqa organizmlar o'rtasidagi farq ham orta boradi.

Bugungi kunda O'zbekistonda 112 turdagi dorivor o'simliklardan tibbiyotda foydalanishga ruxsat berilgan. Ularning 80% ini tabiiy holda o'suvchi giyohlar tashkil etsa-da, so'nggi yillarda katta maydonlarda madaniy plantasiyalari tashkil etilmoqda. Butunjahon Sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, zamonaviy tibbiyotda qo'llanilayotgan dori-darmonlarning 60% i dorivor o'simliklar xomashyolari asosida tayyorlanadi va ishlab chiqarishga joriy etiladi.

Xususan, "Gerbo Farm" xususiy korxonasi 8 gektar yer maydonida tirnoqgul, na'matak, moychechak, asorun (valeriana), o'tkir bargli sano kabi 16 xil turdagi dorivor o'simliklarni yetishtiradi. Korxonada 40 dan ortiq dorivor os'imlik mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda.

Tirnoqgul (kalendula) dorivor o'simligi oshqozon-ichak kasalliklarini davolashda tabiiy, samarali vosita hisoblanadi. O'simlik erta bahorda (fevralning oxiri yoki mart oyining boshida) yohud kech kuzda (oktyabrning oxirlarida) ekiladi. E'tiborlisi, yerga qadalgan urug'larni qishda sovuq urmaydi. Unib chiqqan tirnoqgul ko'chatlari 35–40 kunda ya'ni aprelning oxiri — may oyining boshlarida gullaydi. Mavsum davomida tirnoqgul ekinzori 13 marta sug'oriladi. Yoz va kuz oylarida har 2–3 kunda o'simlikning to'pgullari yig'ib, hosil olinadi.

Tirnoqgul ekinzori 2–3 yil mobaynida saqlanib turadi. Yerga to‘kilgan urug‘lardan qish va bahorda ko‘plab ko‘chatlar unib chiqadi. Bir gektar yerdan 600–800 kilogrammgacha tirnoqgul hosilini yig‘ishtirib olinadi. (1 kg quritilgan guli 50 ming so‘m)

Tavsiya: ushbu o‘simlikni mamlakatimizning barcha hududlarida yetishtirish mumkin.

Moychechak (romashka) dorivor o‘simligi tabobatda tanadagi shamollashlarni, yallig‘lanishlarni davolash, ovqat hazm qilish tizimi faoliyatini yaxshilash, saratonning oldini olish va xolestirin miqdorini pasaytirishda qo‘llaniladi. O‘simlik yorug‘likni yaxshi ko‘radi va urug‘idan ko‘payadi. Moychechakni qishning so‘nggi kunlarida yoki kuz faslida ekish mumkin.

Yerga to‘kilgan urug‘lardan unib chiqqan moychechak 2–3 yil mobaynida hosil beradi. Hosildorlik gektar hisobiga

700–800 kilogrammni tashkil etadi. (1 kg quritilgan guli 40 ming so‘m)

Tavsiya: moychechakni O‘zbekistonning istalgan hududida ekib, yuqori hosil olish mumkin.

Dorivor asorun (valeriana lekarstvennaya) o‘simligidan xalq tabobatida tabiiy tinchlantiruvchi, yurak kasalliklarini davolashda samarali vosita sifatida foydalaniladi. U Yevropa va Sharqiy Osiyoda yetishtirilsa-da, O‘zbekistonda ham dorivor giyoh sifatida ekiladi. O‘simlikning urug‘i erta bahorda yerga qadalib, oktyabr oyida hosil yig‘ib olinadi. Ildizlar yuvuvchi mashinalarda yaxshilab yuviladi, keyin yaxshi shamollatiladigan xonalarda maxsus javonlarga 15–20 sm qalinlikda yoyib qo‘yiladi va panshaxada vaqti-vaqti bilan almashtirib turiladi. Xomashyo xirmonga yig‘ilib, qirqilgan ildizlar esa qoplarga joylanadi. Toylangan xom ashyo 3 yil, toylanmagani esa 2 yil saqlanadi.

Asorun quruq ildizi hosildorligi gektar hisobiga 18–25 sentnerni tashkil etadi. (1 kg quritilgan ildizi 100 ming so‘m)

Tavsiya: O‘zbekistonning unumdor va sug‘oriladigan hududlari (Vodiy, Toshkent va Samarqand viloyatlari)da plantatsiyalar tashkil etish mumkin.

Na‘matak. Tabobatda va zamonaviy tibbiyotda foydalaniladigan na‘matak mevasi C vitaminiga boy bo‘lib, insonning immun tizimini mustahkamlash xususiyatiga ega. Shuningdek, u tomirlardagi qonni suyultirib, qon bosimini tushiradi, shamollash va gripni davolashda asqotadi.

O‘simlikning darmondori navlari faqat jinssiz, 5–15 sm uzunlikdagi novda qalamchalaridan ko‘paytiriladi. Urug‘dan ko‘paytirilganda ular o‘zining nav afzalligini yo‘qotadi. Na‘matak poyalari 5 yilgacha o‘sib turadi, keyin ular yangisi bilan almashtiriladi. Yoshartirilgan ekinzor bir yildan keyin gullaydi va mevaga

kiradi. O‘simlikning 1 ta butasidan terilgan hosil ho‘l holatda 20–25 kilogrammni tashkil etsa, qurigach 10–12 kg ga aylanadi. Hosili terib olinganda, o‘simlikning erkak shoxlari kesib tashlanadi.

Na‘matak quruq mevalari hosildorligi 3*4 sxemada ekilgan maydonda gektar hisobiga 15–20 sentnerni tashkil etadi. (1 kg quritilgan mevasi 20 ming so‘m)

Tavsiya: na‘matakni tog‘ etagi, tog‘ mintaqasidagi lalmi yoki shartli lalmi yerlarda ekish mumkin.

Xulosa

Xulasa qilib shuni aytish kerakki dorivor o‘simliklardan foydalanish bugungi kunda omalashib bormoqda.

Dorivor o‘simliklarning ikkinchi nomi giyohlar deb ham nomlanishini bilamiz.

Bizning hayotimizda barcha turdagi kasalliklar uchun bu dorivor o‘simliklarning o‘rni muhimdir.

Giyohlarni turlarini ko‘paytirish va ularni xalq orasida keng foydalanish lozim.

Biz yuqorida turli xildagi giyoh nomlari va ularning qanday kasalliklarga shifo ekanligini ko‘rib o‘tdik. Hozirda giyohlardan foydalanishning bir qancha usullari mavjud va buni ushbu maqolada ko‘rib chiqishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Dorivor_o%CA%BBsimliklar
2. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekistonning_tog%CA%BBlardagi_o%CA%BBsimliklari
3. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
4. Xolmatov H.X., Habibov Z. H., Farmakognoziya [Darslik], T., 1967;
5. Nabiyev M, Shifobaxsh giyoxlar, T., 1980;
6. Hojimatov Q., Olloyorov M. , O‘zbekistonning shifobaxsh usimliklari va ularni muhofaza qilish, T., 1988;
7. Xoliqov K., O‘zbekiston janubidagi dorivor o‘simliklar, T., 1992;
8. Hoji matov Q.H., Yo‘ldoshev K.Y., Shogulomov U.Sh., Hojimatov O.Q., Shifobaxsh giyoxlar dardlarga malham (Fitoterapiya), T., 1995;
9. Murdoxayev Yu.M. Kultura lekarstvennix rasteniy v O‘zbekistane, T., 1988. Qahhor Hojimatov.
10. <https://images.app.goo.gl/mQ1MzBABGRKDh2N56>